XALQ DEPUTATLARI JOMBOY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 24-mart VII-11-40-7-94-K/25 Jomboy tumani

Xalq deputatlari Jomboy tuman Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Jomboy tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetning tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-95-188-7-94/23-sonli qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi budjet kodeksining 148-moddasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi “Ish haqi pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida”gi PF-108-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida va bu boradagi tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025-yil 13-fevraldagi 01/01-33/06-sonli xatiga asosan, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Jomboy tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, o‘ninchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Sadullayev) va tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining xalq deputatlari Jomboy tuman Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Jomboy tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetning tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-95-188-7-94/23-sonli qaroriga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2. Quyidagilar:

xalq deputatlari Jomboy tumani Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Jomboy tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetning tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-95-188-7-94/23-sonli qarori 1-ilovasiga 1-ilovaga muvofiq;

xalq deputatlari Jomboy tumani Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Jomboy tumanining 2024 yilgi mahalliy budjetning tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-95-188-7-94/23-sonli qarori 2-ilovasiga 2-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin;

3. Jomboy tuman mahalliy budjetining 2024-yilgi ijrosi jarayonida bir hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchi uchun ajratilgan budjet mablag‘larini boshqa hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchiga o‘tkazish bo‘yicha 3-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

4. Jomboy tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (S.Salomov) tuman mahalliy budjetining 2024-yilgi xarajatlari rejalariga tegishli o‘zgartirish kiritsin.

Shuningdek mahalliy budjetlar rejasiga ta’sir etuvchi hukumat qarorlari bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borishni ta’minlasin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (U.Mamatov) zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi JUMANOV JAMSHID AKRAMOVICH

Xalq deputatlari Jomboy tumani
Kengashining
2025-yil 24-martdagi
VII-11-40-7-94-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Jomboy tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2024-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

№	Daromad turlari	Summasi
	Daromadlar miqdori Jami	**109 589 184,0**
1	Foyda solig‘i	14 038 500,0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	8 640 000,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	30 659 600,0
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i	1 452 000,0
5	Benzin dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	7 566 000,0
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 379 240,0
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	9 133 000,0
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	8 792 800,0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	16 689 000,0
10	Qurilish material-lari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	160 000,0
11	Suv resurslari-dan foydalan-ganlik uchun soliq	6 468 186,0
12	Yig‘imlar	1 556 000,0
13	Ijara	54 858,0

Xalq deputatlari Jomboy tumani
Kengashining
2025-yil 24-martdagi
VII-11-40-7-94-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun Jomboy tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
Xarajatlar miqdori Jami		**219 767 568,0**
1.	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	52 024 148,0
2.	Sog‘liqni saqlash bo‘limi	86 804 795,0
3.	Madaniyat bo‘limi	5 219 802,0
4.	Yoshlar siyosati va sport bo‘limi	9 439 575,0
5.	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	3 926 018,0
6.	Irrigatsiya bo‘limi	1 950 740,0
7.	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	2 453 936,0
8.	Kambag‘alikkni qisqartirish va banklik bo‘limi	4 742 135,0
9.	Soliq inspeksiyasi	5 472 097,0
10.	Tuman hokimligi	47 734 321,0

Xalq deputatlari Jomboy tumani
Kengashining
2025-yil 24-martdagi
VII-11-40-7-94-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Jomboy tuman mahalliy budjetining 2024-yilgi ijrosi jarayonida bir hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchi uchun ajratilgan budjet mablag‘larini boshqa hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchiga o‘tkazish bo‘yicha o‘zgartirishlar

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Ko‘payishga	Kamayishga
Xarajatlar miqdori Jami		**1 850 917,0**	**-1 850 917,0**
1.	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	0	-197 000,0
2.	Sog‘liqni saqlash bo‘limi	0	-912 735,0
3.	Madaniyat bo‘limi	0	-522 671,0
4.	Yoshlar siyosati va sport bo‘limi	0	-35 931,0
5.	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	772 037,0	0
6.	Irrigatsiya bo‘limi	0	0
7.	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	286 791,0	0
8.	Kambag‘alikkni qisqartirish va banklik bo‘limi	68 000,	0
9.	Soliq inspeksiyasi	0	-182 580,0
10.	Tuman hokimligi	724 089,0	0